

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№7

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDDI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TDTU
TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOGI - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti




MUNDARIJA

Yashil ish o'rirlari va ekologik ta'lif: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardonra	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	



IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMINING O'RNI VA AHAMIYATI



Rustamova Gulmira Aliqulovna

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti

ORCID: 0009-0007-9927-339X

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida byudjet mablag'lardan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Bugungi global va milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar sharoitida davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va ularni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining muvozanatini ta'minlash, moliyaviy intizomni oshirish, shuningdek soliq va byudjet siyosatini takomillashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mexanizmlari yoritib berilgan. Maqolada O'zbekiston tajribasi asosida byudjet mablag'lardan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, byudjet mablag'larni maqsadli ishlatalish, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish va ular ustidan nazoratni kuchaytirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirishga xizmat qilishi ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, byudjet mablag'lari, moliyaviy boshqaruv, davlat byudjeti, fiskal siyosat, byudjet intizomi, iqtisodiy o'sish, davlat xarajatlari, investitsiya siyosati, ijtimoiy soha moliyalashtirilishi, byudjet taqsimoti, samaradorlik, iqtisodiy siyosat, makroiqtisodiy barqarorlik, byudjet mexanizmi, davlat moliyasi.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role and significance of the mechanism for using budgetary funds in the process of ensuring economic stability. In the context of ongoing transformations in both global and national economies, the effective management of state financial resources and their allocation to priority areas is considered a key factor in achieving economic stability. From this perspective, the article explores the mechanisms for ensuring economic stability through balancing state budget revenues and expenditures, enhancing financial discipline, and improving tax and budget policies. The article also analyzes the problems arising during the use of budgetary funds and ways to overcome them, based on the experience of Uzbekistan. Moreover, it is scientifically substantiated that the targeted use of budgetary funds, improving the efficiency of public spending, and strengthening financial control contribute to the stabilization of economic growth rates.

Keywords: economic stability, budgetary funds, financial management, state budget, fiscal policy, budget discipline, economic growth, government spending, investment policy, social sector financing, budget allocation, efficiency, economic policy, macroeconomic stability, budget mechanism, public finance.

Аннотация: В статье проводится углубленный анализ роли и значения механизма использования бюджетных средств в процессе обеспечения экономической устойчивости. В условиях современных преобразований в глобальной и национальной экономиках эффективное управление государственными финансовыми ресурсами и их целенаправленное распределение по приоритетным направлениям рассматриваются как важнейшие факторы экономической стабильности. С этой точки зрения в статье освещаются механизмы достижения экономической устойчивости через балансировку доходов и расходов государственного бюджета, повышение финансовой дисциплины, а также совершенствование налоговой и бюджетной политики. В статье также анализируются проблемы, возникающие при использовании бюджетных средств, и пути их решения на основе опыта Узбекистана. Кроме того, научно обосновано, что целевое использование бюджетных средств, повышение эффективности государственных расходов и усиление контроля над ними способствуют стабилизации темпов экономического роста.

Ключевые слова: экономическая устойчивость, бюджетные средства, финансовое управление, государственный бюджет, фискальная политика, бюджетная дисциплина, экономический рост, государственные расходы, инвестиционная политика, финансирование социальной сферы, распределение бюджета, эффективность, экономическая политика, макроэкономическая стабильность, бюджетный механизм, государственные финансы.



KIRISH

Har qanday davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, avvalo, samarali moliyaviy boshqaruv tizimi va davlat byudjeti mablag'laridan oqilona foydalanishga bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy barqarorlikka erishish — bu faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni izchil oshirib borish emas, balki davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotda muvozanatri ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, ishlab chiqarishni rag'batlantirish va infratuzilmaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlashni anglatadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijadorligi, avvalo, byudjet tizimining mustahkamligi, uning daromad manbalari barqarorligi va xarajatlar qismining aniq, maqsadli yo'naltirilganligiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lida izchil va bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, so'nggi yillarda davlat byudjetining ochiqliagini ta'minlash, mablag'lar taqsimotini adolatli tashkil etish, fiskal siyosatni takomillashtirish, soliq-byudjet tizimini yanada liberalallashtirish bo'yicha muhim choralar ko'rilmoxda.

Ushbu jarayonda byudjet mablag'laridan foydalanish mexanizmining tutgan o'rni ayniqsa muhimdir, chunki u davlat siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarda samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Davlat byudjeti — bu nafaqat daromadlar va xarajatlar balansini aks ettiruvchi moliyaviy hujjat, balki u davlatning iqtisodiy strategiyasi, ijtimoiy siyosati va taraqqiyot yo'nalishlarini moliyaviy jihatdan ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy barqarorlik sharoitida byudjetning roli yanada ortadi. U iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish, iqtisodiy faoliyotni qo'llab-quvvatlash, bandlikni oshirish, aholining turmush dara-jasini yaxshilash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish kabi ko'plab yo'nalishlarda muhim funksiyani bajaradi.

Bunday sharoitda byudjet mablag'laridan foydalanish mexanizmlarining aniqligi, shaffofligi va samaradorligi davlat siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda fiskal siyosatni isloh qilish, byudjet xarajatlarini maqbullashtirish va natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda.

Yalpi ichki mahsulotdagi davlat xarajatlarining hissasi, ijtimoiy himoya, ta'lif va sog'liqni saqlash tizimlariga ajratilayotgan mablag'lar miqdori hamda ularning ishlatilish samarasini bu boradagi muhim ko'rsatkichlardandir.

Shu bilan birga, respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlari, byudjetlararo transferlar tizimi va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri masalalari ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Byudjet mablag'laridan foydalanish mexanizmlari asosan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: rejalashtirish, mablag'larni ajratish, ularni maqsadli yo'naltirish, ijro va natijalarini baholash.

Har bir bosqichda shaffoflik, javobgarlik va monitoringning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, davlat xarajatlarini rejalashtirishda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlari asosiy mezon sifatida olinadi. Mablag'larni ajratish jarayoni esa har bir sektor ehtiyojlari, dastur va loyihalarning dolzarbligiga qarab amalga oshiriladi.

Ushbu bosqichlarning har birida korrupsiya va samarasizlik holatlarining oldini olish, byudjet intizomini mustahkamlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali boshqaruv sifatini oshirish zarurati yuzaga keladi.

Shuningdek, zamonaliv sharoitda byudjet mablag'larini samarali boshqarish uchun xalqaro tajribalardan ham keng foydalanilmoqda. Rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, byudjetni natijadorlikka yo'naltirish, ya'ni mablag' sarflarining aniq natijasi va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash orqali moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Bu esa faqat raqamlar va balanslar emas, balki jamiyat hayotiga real ta'sir ko'rsatuvchi natijalarini ta'minlashni nazarda tutadi. O'zbekiston ham so'nggi yillarda ushbu yondashuv asosida byudjetni shakllantirish va uni boshqarish tizimini takomillashtirishni maqsad qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda byudjet mablag'laridan foydalanish mexanizmlari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda bu jarayonning nazariy va amaliy jihatlari turli nuqtai nazardan yoritib berilgan. Davlat moliya tizimi va byudjetning iqtisodiy mohiyati qadim zamonlardan boshlab iqtisodchilar tomonidan o'rganila boshlangan.

Masalan, G'arb olimlari — klassik iqtisodiy nazariya asoschilari U. Petti, A. Smit va D. Rikardo tomonidan davlat byudjeti daromadlari shakllanishida soliq tizimining o'rni va vazifalari chuqur yoritilgan. Ular davlatning iqtisodiyotdagi minimal ishtiroki tarafдорлари bo'lib, davlatning asosiy vazifalarini mudofaa va ijtimoiy masalalarni hal etish deb belgilaganlar. Bozor munosabatlari esa, ularning fikricha, "talab va taklif qonuniga asosan iqtisodiy rivojlanishni muvofiqlashtiradi" [5].



P. M. Jakson va T. R. Allenning tadqiqotlari davlat moliyaviy nazorati va hisobdorlik tizimlariga oid keng qamrovli tahlillarni o'z ichiga oladi. Ular davlat byudjetining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashning zamonaviy usullari haqida chuqur izlanishlar olib borgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlari byudjet mablag'lari ustidan nazorat, hisobot tizimlarini optimallashtirish va ichki auditning roli bilan bog'liq masalalarni yoritadi [6].

O. Kostantini fikricha, "Hukumat byudjeti — hukumatning moliyaviy davrdagi, odatda bir yildagi, daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi mablag'lar yig'indisi hisoblanadi. Yaxshi tayyorlangan va aniq belgilangan byudjet har bir iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun juda muhimdir" [7].

Aaskoven L. o'zining tadqiqotlarida byudjet tizimlarining samaradorligini oshirishda ishtirokchilik va shaffoflikni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "byudjetlash modeli jamiyatning turli guruhlari o'tasidagi ijtimoiy tenglikni oshiradi va resurslar taqsimotidagi nohaqlikni kamaytiradi. Bu model, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy holati past bo'lgan qatlamlarga foyda keltiradi, chunki ular o'z ehtiyojlarini va ustuvorliklarini aks ettirishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar" [8].

Rus olimlaridan Vladimir Polyakov davlat byudjeti jarayonini optimallashtirish uchun shaffoflik va hisobdorlikni oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, "samarali byudjetni ta'minlashda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni davlat moliya tizimiga joriy etish katta ahamiyatga ega" [9].

Aleksandr Kiselev ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini mustahkamlash va samarali auditlarni amalga oshirishni taklif qiladi. Uning fikricha, bu usullar "davlat byudjeti mablag'larini boshqarishda korrupsiya xavfini kamaytirish va moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi" [10].

O'zbekistonlik iqtisodchi M. M. To'laxo'jayevning fikricha, "Moliyaviy nazorat — davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir" [11].

A. Mamanazarov esa mahalliy byudjetlarni barqarorashtirishda soliqlarning rolini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, "Byudjetning barqarorligi quyidagi ikki jihat bilan ifodalanadi: birinchidan, byudjetning balanslangan bo'lishi va taqchillik bo'lmasi; ikkinchidan, taqchillik bo'lsa ham, uni belgilangan me'yorda saqlab turish" [12].

M. Mansurov esa byudjet tuzilishini jahon amaliyoti asosida markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan va aralash turdag'i shakllarga ajratilishini ta'kidlab o'tadi [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda byudjet mablag'laridan foydalanishning o'rni va ahamiyatini oddiy hamda amaliy yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan.

Bu jarayonda byudjet mablag'larining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, ularning samarali taqsimlanishi va ustuvor yo'naliishlarga yo'naltirilishi bo'yicha mavjud ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida qiyosiy tahlil va statistik usullar qo'llanilib, O'zbekiston misolida byudjet mablag'laridan foydalanishning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri o'rganiladi.

Ilmiy yondashuv orqali byudjet xarajatlarining makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va amaldagi mexanizmlarning samaradorligi aniqlanadi.

Bundan tashqari, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beruvchi natijalar olishga e'tibor qaratilib, moliya siyosati va byudjet intizomini mustahkamlash orqali barqarorlikni ta'minlash yo'llari o'rganiladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat byudjeti davlatning iqtisodiy siyosatining muhim asosi bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishda alohida ahamiyatga ega. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, davlatning moliyaviy resurslarini maqsadli va oqilona taqsimlashni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Shu sababli, byudjet mablag'laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish, yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur.

Bugungi kunda davlat byudjeti iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, davlatning moliyaviy resurslarini maqsadli va oqilona taqsimlashni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bu jarayonni takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tuzilmasining bo'g'lnlari ham, o'z navbatida, murakkab tarkibiy tuzilishga ega. Davlat byudjeti (ko'pchilik hollarda davlat maqsadli jamg'armalarisiz "Davlat byudjeti" deb yuritiladi) quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat: (1-rasm)



1-rasm: Davlat byudjeti tuzilmasi [1]

Respublika byudjeti — davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalilanigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy byudjet — davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda ma'lum ma'muriy birlikning daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori ko'rsatiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti — davlat byudjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, mazkur byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori aks ettiriladi.

Respublikamizda byudjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ta'minlash, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish, shuningdek mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish hamda byudjet intizomini ta'minlash — byudjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Byudjet jarayonlarida, xususan, byudjet ijrosini qat'iy ta'minlashda, birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarakatlarni moliyalashtirish, byudjet mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish borasida olib borilayotgan ishlarga qaramay, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashtirilishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Byudjet jarayonini amaldagi qonunchilik asosida va belgilangan parametrlar doirasida amalga oshirish, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish, shuningdek mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish hamda byudjet intizomini ta'minlash byudjet tizimining ustuvor vazifalaridandir. Davlat moliyaviy nazorati tizimining samaradorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri — byudjet mablag'larining maqsadli sarflanish darajasidir. Quyidagi tahlil davomida bir necha yillik moliyaviy hisobotlar o'rganilib, byudjet mablag'larining noto'g'ri yoki samarasiz ishlatalgan holatlari aniqlangan. (1-jadval)

1-jadval: 2019–2023-yillarda O'zbekistonning byudjet tashkilotlarida aniqlangan moliyaviy qoidabuzarliklar [4]

Yil	Aniqlangan moliyaviy qoidabuzarliklar (mlrd so'mda)	Byudjet mablag'lari miqdori (mlrd so'mda)	Qoidabuzarliklar ulushi (%)
2019	320	68,000	0.47
2020	280	72,500	0.39
2021	350	76,000	0.46
2022	400	82,000	0.49
2023	360	85,500	0.42

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2019–2022-yillarda aniqlangan moliyaviy qoidabuzarliklar miqdori ortib borgan bo'lsa-da, 2023-yilda qoidabuzarliklar miqdori nisbatan kamaygan. Bu holat moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish yo'lidagi qadamlar natijasi bo'lishi mumkin.

Biroq, qoidabuzarliklarning byudjet mablag'lariiga nisbatan ulushi hanuz 0,4–0,5 % atrofida saqlanmoqda. Bu esa tizimda hali ham muayyan kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi.



Byudjet mablag'larini to'g'ri va maqsadli yo'naltirishda, avvalo, byudjet mablag'laridan foydalanish mexanizmi muhim rol o'ynaydi.

Byudjet mablag'laridan foydalanish mexanizmi — bu mablag'larni yig'ish, taqsimlash, maqsadli sarflanishini ta'minlash va ularni nazorat qilish jarayonidir. Ushbu mexanizm quyidagi bosqichlardan iborat:(2-jadval)

2-jadval: Budget mablag'laridan foydalanish mexanizmi¹

Byudjetni rejalashtirish va shakllantirish	Byudjetni rejalashtirish jarayonida davlatning asosiy ehtiyojlari va ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Ushbu bosqichda mablag'larning qaysi sohalarga yo'naltirilishi, qancha mablag' ajratilishi va xarajatlar hajmi belgilab olinadi. Byudjet rejasiga odatda har yili, ayrim hollarda esa bir necha yil uchun shakllantiriladi.
Baholash va takomillashtirish	Byudjet mablag'larining sarfi va ularning iqtisodiy samaradorligi chuqur baholanadi, mavjud yutuqlar va aniqlangan kamchiliklar tahlil qilinadi. Ushbu baholashlar natijasida kelgusi byudjet jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun asosli taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Agar baholash jarayonida tizimli muammolar yoki funksional kamchiliklar aniqlansa, mavjud mexanizmni takomillashtirish, yangi yondashuvlar joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rildi.
Mablag'larni taqsimlash va ajratish	Davlat byudjeti tasdiqlangandan so'ng, mavjud moliyaviy resurslar sohalar, tarmoqlar yoki aniq loyihami bo'yicha taqsimlanadi. Masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarga zarur miqdorda mablag' ajratiladi. Mablag'larning taqsimlanishi faqat respublika darajasida emas, balki mahalliy byudjetlar kontekstida ham amalga oshiriladi. Bunda har bir hududning moliyaviy imkoniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holati va ustuvor ehtiyojlari inobatga olinadi.
Mablag'lardan foydalanish	Ajratilgan mablag'lar belgilangan loyihami va rejalashtirilgan xarajatlarga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonda davlat organlari va tegishli tashkilotlar o'z faoliyatlarini tasdiqlangan rejalarga muvofiq olib borishlari lozim. Mablag'larning maqsadli ishlatalishini ta'minlash uchun zarur hujjatlar tayyorlanadi, shuningdek, har bir xarajat bo'yicha moliyaviy hisobotlar shakllantiriladi. Bu esa mablag'larning shaffofligi, samaradorligi va javobgarlik tamoyillariga muvofiq boshqarilishini kafolatlaydi.
Nazorat va audit	Byudjet mablag'larining to'g'ri va maqsadli ishlatalishini ta'minlash maqsadida muntazam nazorat va audit tadbirlari amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda ichki va tashqi moliyaviy nazorat organlari faol ishtiroy etadi. Xususan, Hisob palatasi hamda boshqa vakolatlari organlar byudjet mablag'larning maqsadsiz yoki samarasiz sarflanish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish uchun mas'ul hisoblanadi. Audit natijalari asosida zarur moliyaviy choralar ko'rildi va javobgarlik mexanizmlari ishga tushiriladi.
Hisobot berish va baholash	Byudjet mablag'laridan foydalanishning har bir bosqichida tegishli hisobotlar tayyorlanadi va mablag'larning qayerga hamda qanday maqsadlarda sarflangan bo'yicha aniq ma'lumotlar taqdim etiladi. Mazkur hisobotlar asosida byudjet mablag'larning sarflanish samaradorligi tahlil qilinadi va baholanadi. Agar ushbu baholash natijasida samaradorlikning pastligi yoki moliyaviy qoidabuzarliklar aniqlansa, qonunchilikka muvofiq ravishda zaruriy choralar ko'rildi hamda tegishli mas'ullar javobgarlikka tortiladi.

Budget mablag'laridan foydalanish mexanizmi — bu davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarning ehtiyojlari xizmat qilishga yo'naltirilgan muhim jarayon hisoblanadi.

Yurtimizda har yili yil yakunida budget mablag'larini to'g'ri va maqsadli yo'naltirishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va keyingi yillarda uchun maqsadli mo'ljallar ishlab chiqiladi. Quyidagi jadvalda biz 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va 2025–2026-yillarda uchun belgilangan maqsadli mo'ljallar bilan tanishishimiz mumkin: (3-jadval)

1 Internetdagи manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



3-jadval: 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va 2025-2026-yillar uchun maqsadli mo'ljallar [2]

T/r	Ko'rsatkichlar	2024-yil proqnozi	Maqsadli mo'ljallar	
			2025-yil	2026-yil
1.	Yalpi ichki mahsulot (mlrd so'm)	1 301 759	1 540 547	1 725 969
2.	□ Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati (%)	5,6 - 5,8	6,2	6,4
3.	Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yil dekabr oyiga nisbatan (%)	8 - 10	7,5 - 8,5	5 - 7
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati (%)	6,0	7,6	7,5
5.	□ Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (%)	4,0	4,1	4,1
6.	□ Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati (%)	6,1	6,4	6,7

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, davlat byudjetida yalpi ichki mahsulot va iste'mol narxlari indeksining o'sish sur'ati boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan ancha yuqori ekanligi yaqqol namoyon bo'limoqda. Boshqa ko'rsatkichlarda esa o'sish sezilarli darajada bo'lmay, barqarorlik saqlanayotganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti— O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun shakllantiriladi.

Mazkur byudjet byudjet tizimi byudjetlari (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) bo'yicha barcha tushumlar va xarajatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari (ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda) ni o'z ichiga olgan holatda yuritiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushu maqolada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda byudjet mablag'lariidan foydalanish mexanizmining dolzarbliji, amaliy ahamiyati va samaradorligini oshirish yo'llari atroficha tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirib kelayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan davlat moliyasi sohasidagi yangilanishlar, fiskal siyosatning barqaror asoslarda yuritilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ushu mavzuning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bugungi shiddatli iqtisodiy o'zgarishlar, global moliyaviy beqarorlik xavfi va ichki ehtiyojlarning ortib borayotgani sharoitida byudjet mablag'lariidan oqilona, maqsadli va samarali foydalanish masalasi nafaqat moliyaviy boshqaruv tizimi uchun, balki butun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Davlat byudjetining tuzilmasi, xarajatlarning ustuvor yo'nalishlarga to'g'ri yo'naltirilishi, ularning monitoringi va baholash tizimi orqali nazorat qilinishi iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi tahlillar va adabiyotlar asosida quyidagi takliflar ilgari surildi: byudjet mablag'larini natijadorlikka asoslangan yondashuv orqali taqsimlash tizimini mustahkamlash lozim. Har bir ajratilgan mablag' aniq ijtimoiy-iqtisodiy natijaga xizmat qilishi zarur. Bu orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy intizomni kuchaytirish mumkin bo'ladi; davlat xarajatlarini rejalashtirishda sektorlar kesimida ustuvorlikni aniqlashning aniq mezonlarini ishlab chiqish zarur. Masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va raqamli iqtisodiyot kabi strategik yo'nalishlarga ajratiladigan mablag'lar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka bevosita xizmat qilishi lozim; byudjet ijrosining shaffofligi va ochiqligini oshirish maqsadida elektron byudjet texnologiyalarini yanada keng joriy etish kerak. Bu nafaqat fuqarolik nazoratini kuchaytiradi, balki korrupsiya va samarasiz ishlatish holatlarining oldini oladi; mahalliy byudjetlar mustaqilligini kuchaytirish orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Mahalliy hokimiyatlarga yetarli moliyaviy vakolat va resurslar ajratishi, joylardagi ehtiyojlar asosida mablag'lar taqsimlanishi hududiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi; byudjet xarajatlari ustidan monitoring va baholash tizimini institutsional asosda mustahkamlash lozim. Har bir



dastur, loyiha va xarajat turi bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilishi, ularning ijrosi yuzasidan mustaqil auditlar o'tkazilishi kerak; xalqaro moliyaviy institutlar tajribasidan foydalangan holda o'rta va uzoq muddatli byudjet rejalashtirish tizimini rivojlanтирish muhim. Bu davlat byudjetining barqarorligini ta'minlashda, fiskal risklarni boshqarishda va makroiqtisodiy muvozanatni saqlashda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, iqtisodiy barqarorlikka erishishning eng muhim vositalaridan biri bu — byudjet siyosatini puxta asoslash, mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni yo'lg'a qo'yishdir. Bu esa o'z navbatida, davlat moliyasi tizimida uzlusiz islohotlarni amalga oshirishni, innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajribalarni tatbiq etishni talab etadi. Shu bois, ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar va amaliy choralar kelgusida mam-lakatimizning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'yaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" 2013-yil 26-dekabrdagi 360-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs-2302187>
2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-6707765>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi "Byudjet mablag'lарidan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-100-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs-7015258>
4. Kamalov A.A. Byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'lарidan foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish // International Journal of Scientific Researchers. – 2024. – Vol. 8, Issue 1.
5. Gaibnazarova Z.T., Isamuxamedov Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent, 2020. – 14 b.
6. Rahimov S. Davlat moliyaviy nazorati va uning huquqiy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi nashriyoti, 2020.
7. Costantini O. Political economy of the Stability and Growth Pact // European Journal of Economics and Economic Policies: Intervention. – 2017. – Vol. 14(3). – P. 333–350.
8. Aaskoven L. Budget institutions and taxation // Public Choice. – 2018. – Vol. 174(3–4). – P. 335–349.
9. Поляков В. Финансовые технологии в государственном бюджетном процессе. – Москва: Наука Пресс, 2020.
10. Киселев А. Государственный бюджет и финансовый контроль: проблемы и решения. – Санкт-Петербург: Экономика и Право, 2021.
11. To'laxo'jaeva M.M. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimi. – Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1998. – 262 b.
12. Mamanazarov A.B. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2002. – 22 b.
13. Mansurov M.A. Davlat byudjetini ijro etishda byudjet ma'lumotlarining ochiqligini ta'minlash va markazlashgan byudjetdan voz kechishning ahamiyati // Moliyaviy va bank ishi elektron ilmiy jurnali. – Toshkent: BMA, 2019 (noyabr-dekabr). – №6. – B. 58–67.
14. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti: <http://www.lex.uz>
15. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti: <https://www.imv.uz>
16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti: <http://www.stat.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100